



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



**“BADIY GRAFIKA VA DIZAYN
SOHASIDA BO‘LAJAK
MUTAXASSISLARNI
TAYYORLASHNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”
MAVZUSIDA**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI**

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**



TERMIZ - 2024

124.	Razikberdiyev M.I.	“Loyihalash asoslari”, “Interyer loyihalash”, “Arxitekturaviy loyihalash” fanlarni o‘zlashtirishda boshqa fanlarning to‘g‘ridan – to‘g‘ri bog‘liqligi haqida fikr va mulohazalar	378
125.	Norboyev O‘.M.	“Statistika” fanini o‘qitishda g.monj usulining tadbiqi	383
126.	Xatamov A.Y.	Muhandislik grafikasi fanining mutaxassislik fanlarni o‘qitishdagi fundamental ahamiyati va o‘zaro bog‘lanish xususiyatlari	386
127.	Murodova M.H.	Muhandislik grafikasini o‘qitishda zamonaviy yondoshuvlar va rivojlantirish tendensiyalari	389
128.	Abbosova M.S.	Arxitektura va dizaynning shakllanishida asosiy ekologik prinsiplar	393
129.	Abbosova M.S.	Arxitektura va dizaynning bugungi kundagi ahamiyati va talabi	397
130.	Yarasheva Z.A., Norboyev O‘.M.	3D texnologiyalaridan foydalanib talabalarda konstruktiv kompetensiyalarni rivojlantirish ko‘rsatkichlarini statistik baholash (“Muhandislik va kompyuter grafikasi” fani misolida)	400
131.	Abdulazizov B.I., Botirova N.X., Xusanova Sh.A., Mirtolipov M.M., Zoxirjonov J.Z.	Muhandislik kompyuter grafikasini modulli o‘qitish asosida talabalarning ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish	403
132.	Ozodboyev I.O.	Differensial yondashuv asosida chizmachilik fanini o‘qitishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	407
133.	Hayitov J.M.	Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishdagi chizmani o‘qishni amaliy ahamiyati	409
134.	Muxitdinov A.A.	Muhandislik grafikasi fanida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari	412
135.	Soatov A.M.	Chizmachilik fanida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	415
136.	Sulaymonova M.B., Raxmatova SH.H.	Buxoroning zamonaviy zargarlik san’ati	418
137.	Hayitov J.M., Muminov X.S., Rixsiboyev S.R., G‘ulomov U.A.	Oliy ta’limda chizmachilik fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalar tushunchasi	420
138.	Ozodboyev I.O., Amanova M.Y., Qo‘shboqova G.N.,	Chizmachilik fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	423

BUXORONING ZAMONAVIY ZARGARLIK SAN'ATI

M.B.Sulaymonova

BuxDU, Tasviriy va amaliy san'at kafedrası o'qituvchisi

SH.H.Raxmatova

12-1AS (AT) - 24 iqtidorli talabasi

O'zbek xalqining ko'p asrlık tarixida xalq amaliy bezak san'ati turlari boy va rangbarang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib gullab yashnagan san'at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'ati turlarining shoh ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. O'lkamiz zaminidagi qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan va asrlar osha hozirgacha davom etib kelmoqda. Amaliy bezak san'ati – bezak san'ati sohasi hisoblanadi. Ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi.

Zargarlik hunarining qadimgi markazlaridan biri Buxoro maktabidir. Qadimshunoslar tomonidan Buxoro vohasidan topilgan zebi ziynat taqinchoqlarning qadimgi namunalari eramizdan avvalgi II ming yilliklarga borib taqaladi. "Zamonbobo madaniyati" deb fanga kirgan yodgorliklar orasida qimmatbaho tosh va oltindan tayyorlangan ayollar taqinchoqlari bunga yorqin dalil bo'ladi. Eramizdan avvalgi IV asrga taalluqli Quyumozor xududidan topilgan ayollar qiyimi tugmalari va ayollar sirg'asi oltindan yasalgan bo'lib, turmalin toshi bilan bezatilgan.

O'rta asrlar va ayniqsa XIX asrga kelib zargarlik san'ati saroy hunarmandchiligi darajasiga ko'tarildi. XIX asr oxirlarida hunarmandchilik markazi Buxoroda 400 dan ortiq usta zargarlar faoliyat olib borishgan. Ulardan 20 tasi saroy hunarmandlari bo'lib Ark qo'rg'onida kushbegi bolo yuqori qushbegi hovlisida saroy ayonlari va oilasi uchun qimmatbaho buyum va taqinchoqlar tayyorlashgan. Mo'hir saroy zargarlari Usta Nasrulloboy, usta Nabi, Qosimjon Miroqov, Sadridin bin Pochcho va boshqalar mashhur bo'lishgan.

Buxoro hunarmandlari, yasagan buyumlarini nafaqat mahalliy aholi, qolaversa Buyuk Ipak yo'li orqali G'arb va Sharq mamlakatlarida ham sevib xarid qilishgan. Savdo yo'li chorraxasida joylashgan Buxoroi sharif shahrining qadimgi markazida maxsus yopiq bozor "Toqi zargaron"- zargarlar toqining faoliyat ko'rsatishi ham zargarlik bu yerda yuksak darajada rivojlanganligidan darak beradi. Buxoroda joylashgan zargarlik ustaxonalarida qimmatbaho metall va toshlardan turli xil buyum

va ayollar zebi zeynatlari yasalgan. Buxoro zargarlari oltinni quyoshning sehrli yog'disiga qilganlar. Kumushda maftunkor oyning jamolini ko'rganlar. XX asrning to's-to'polon va to'ntarishlar oqibatida zargarlik san'ati ham inqiroga yuz tutdi. Hunarmandlar taqib qilindi. Ildizi ming yillarga borib taqalgan zargarlik xam istiqlool sharofatidan qayta bo'y cho'zdi.

Buxorolik usta zargar Alisher Haydarov Buxoro zargarlik maktabining,oldingi an'analarini qayta tiklab yangicha mazmun bilan boyitgan mohir ustadir.

U bu hunar sirini bobosi mohir usta abdunosir otadan o'rgandi. Bobosi ruhini shod etish maqsadida oliygohini tugatgan Alisher, zargarlik hunariga o'zini bag'ishladi. Universitetning badiiy grafika fakultetini bitiruv diplom ishini ham zargarlik taqinchog'i "Nozi gardon" yasab himoya qildi. Mana qariyb o'ttiz yil mobaynida u izlanishda. U erishgan muvaffaqiyatlar bilan chegaralanib qolmay tinmay o'z ustida ishlaydi. 1000 dan ortiq zargarlik xazinasiga ega Buxoro Davlat badiiy me'morchilik muzey qo'riqxonasida namoyish etilayotgan xar bir eksponatni sinchkovlik bilan o'rganib yangidan yangi asarlar yaratdi. Uning umr yo'ldoshi Gulshod G'ulomova o'g'illari Shahzod, mirshod va Abdunosirlar ota kasbini davom ettirib, uylaridagi mo'jazzgina ustaxonada ijod qilishadi. Shogirdlar uchun alohida xona va stollar jihozlangan.

Alisher Haydarov " Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lganiga qariyb 20 yil to'ldi. Shu yillar mobaynida 10 ga yaqin shaxsiy ko'rgazma va 20 dan ortiq xalqaro ko'rgazmalarda qatnashdi hamda ko'plab diplom va sertifikatlar bilan taqdirlandi.

2009 yil uning hayotida unutilmas voqea sodir bo'ldi. Alisher Haydarov " Tashabbus" ko'rik tanlovi Respublika bosqichi g'olibligini qo'lga kiritdi. Respublikaning birinchi Prezidenti qo'lida yengil avtomashina "Matiz" ning kalitini va sertifikatni olishdek ulkan baxtga sazovor bo'ldi.

Usta zargarning ishlari, ko'rgazmasi keyingi 5 yil mobaynida AQShning Santa-Fe shahrida, fransiya, Rossiya, Hindiston, Qozig'iston, Yaponiya, Eron, Pokistonda YUNESKO va KAKSA tashkilotlari tashkil qilgan xalqaro ko'rgazmalarda namoyishi qilinib keladi.

Zargarning istagi XYIII-XIX asrlardagi Samarqand va Buxoro zargarligiga xos an'ana va uslublarni qayta tiklab, Buxoro zargarlik san'atini yanada rivojlantirishdir.

Ustaning sevimli uslublari quyma, urib toblash, qolip, sim to'qima, bosma, qadama, hoiskori, minokori, kandakori, zarhal, siyohiy, saqich, o'yma naqshlar, falga va boshqalardir.

Kumush va oltindan yasalgan taqinchoqlarni asl marjon, dur, firuza, qimmatbaho tosh parchalari, zumrad, la'l, haqiq va har xil shishalardan zeb berib go'zal shakllarni mazmun bilan boyitadi.

Usta yaratgan 400 ortiq yuksak badiiy buyumlar 100ga yaqin nomlar bilan yuritiladi.

U O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligining 15,20 yillik ko'krak nishoni bilantadirlandi, 50 dan ortiq shogirdlar yetishtirdi.

Alisher Xaydarovning ishlari Yaponiya, AQSH, Fransiya, Berlin muzeylariga, O'zbekiston Amaliy san'ati muzeyi va ko'plab shaxsiy kolleksiyalarga (to'plamlarga) sotib olingan. Bu usta mahoratining yuksakligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.S. Bulatov "Naqqoshlik". Fan va texnologiya. T- 2010 yil
2. B.Q. Xolmatov "Naqqoshlik"-Iqtisod-moliya. T-2007 yil
3. P.Qodirxo'jayev "Badiiy bezak san'ati"- Iqtisod-moliya. T-2008 yil
4. K.A. G'ulomov "Amaliy san'at"- Iqtisod-moliya. T-2007 yil
5. F. Melhuish "The Grammar of Ornament"- rare books librarian-L: 2009 yil
6. D.I. Mamurova "Amaliy va badiiy bezak san'ati"- Durdona-B: 2021 yil
7. Sh.Sh. Bakayev "Amaliy bezak san'ati"- Durdona-B: 2021 yil

**OLIY TA'LIMDA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA RAQAMLI
TEKNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI.**

Hayitov Javohir Maxtumqul o'g'li

ChDPU, o'qituvchi, e-mail: havitov.javohir@cspu.uz

Muminov Xabibulla Saxibovich, Rixsiboyev Sa'dullo Raxmatulla o'g'li,

G'ulomov Umarbek Azizjon o'g'li

ChDPU talabalari.

Oliy ta'limda chizmachilik fanining raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirilishi, uning samaradorligini va sifatini oshirishga katta yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy mutaxassislar va muhandislar uchun zarur bo'lgan malakalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarni chizmachilikda qo'llash nafaqat o'quv jarayonini samarali qiladi, balki ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar 3D model va vizualizatsiya jarayonlarini osonlashtiradi, bu esa loyihalarni uch o'lchovda ko'rish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa nafaqat muhandislik, balki arxitektura va dizayn sohalarida ham samarali foydalaniladi. Chizmalarni ishlab chiqishda avtomatik tahrir va hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi maxsus dasturlar va algoritmlar ishlab chiqilmoqda. Bu jarayonlarni yanada tezlashtirishga yordam beradi va inson xatoliklarini kamaytiradi. Chizmachilik fani o'zining asosiy metodlari va texnikalarini takomillashtirishni talab qiladi. Bu borada ilmiy yondashuv va tadqiqotlar muhim rol o'ynaydi: Raqamli texnologiyalar yordamida chizmalarni optimallashtirish, masalan, geometrik shakllarni aniqroq va samaraliroq qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Matematik va algoritmik usullar, murakkab strukturaviy tahlillarni amalga oshirishda, masalan,

